Maqol birliklarida ot leksemasining ifodalanishi

Xolmatova Odina Uktamovna,

FarDu dotsenti, (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada leksik birliklar maqollarning shakllanishi uchun moddiy asos hisoblanishi, maqol mazmunini shakllantirishda matn tarkibidagi komponentlardan biri tayanch leksema vazifasini o‘tashi haqida fikrlar berilgan. Maqol tarkibidagi boshqa bo‘lak bilan sintaktik munosabatning turli xil kombinatsiyalarini shakllantirishga xizmat qilishi, maqollarda morfologik jihatdan asosan ot, sifat, son va fe’l leksemalar tayanch leksema hisoblanishi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: ot, sifat, son, fe’l leksemalar, maqolning semantik tuzilishi, sintaktik munosabat, anemonim, kosmonimlar.

Maqollarni “hayot qomusi”, xalq og‘zaki ensiklopediyasi, o‘ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini o‘tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta’sirchan qiladi, hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to‘g‘ri yechishga o‘rgatadi, turmushning jamiki katta-kichik masalalari xususida qimmatli maslahatlar beradi. Shuningdek, maqollar o‘z ijodkori bo‘lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy va maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og‘zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiydir. M.Qoshg‘ariy XI asrdayoq turkiy xalqlarning hikmatli iboralaridan juda katta qismini o‘zining “Devon”iga kiritib, ularni qanday vaziyatda, qaysi mazmunda qo‘llanishini arab tilida izohlagan edi. “Devonu lug‘otit turk”da xalq og‘zaki ijodiga oid 300 dan ortiq she’riy parchalar, 291ta maqol va matallar keltirilgan[1;49].

Uzoq yillardan beri olimlar diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etib kelayotgan maqollar folklor, etnografiyaning o‘rganish obyekti sifatida tadqiq etildi. Mumtoz adabiyotda *maqol* atamasi so‘z, nutq, gap tushunchalarini anglatgan[2;123] va maqol tushunchasini ifodalash uchun esa *masal* istilohi qo‘llangan[3;117]. Keyinroq bu soha bilan tilshunoslik ham shug‘ullana boshladi. Keyingi vaqtlarda o‘zbek tilshunosligida xalq maqollari boshqa bir yo‘nalishda tadqiq etila boshlandi, ya’ni yozuvchi va shoirlar asarlarining tili va uslubiga oid ko‘pgina ishlarda, nomzodlik dissertatsiyalarida xalq maqollarining ma’noviy, uslubiy xususiyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi.

Leksik birliklar maqollarning shakllanishi uchun moddiy asos hisoblanadi. Maqol mazmunini shakllantirishda matn tarkibidagi komponentlardan biri tayanch leksema vazifasini o‘taydi. Shuningdek, maqol tarkibidagi boshqa bo‘lak bilan sintaktik munosabatning turli xil kombinatsiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Maqollarda morfologik jihatdan asosan ot, sifat, son va fe’l leksemalar tayanch leksema hisoblanadi. Albatta, bular orasida ot leksemalar maqolning semantik tuzilishida yetakchilik qiladi. Chunki fikrni ixcham ifodalash maqsadida ot leksemalarning imkoniyati boshqa turkum leksemalar imkoniyatidan ancha ortiq. Asosan, shaxs otlari va somatik a’zolar, o‘simlik va uning muchalari nomi, hayvon va uning a’zolari, maishiy-ro‘zg‘or buyumlari, shuningdek, anemonimlar, kosmonimlar va abstrakt tushunchali otlar maqollar strukturasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Maqollarda morfologik xususiyati, shuningdek, semantik strukturasiga ko‘ra asosan ot leksemalar tayanch komponent hisoblanadi. Maqol birliklarda shaxs otlari boshqa nomlarga

nisbatan yetakchilik qiladi, ayniqsa, qavm-qarindoshlik otlarining bu boradagi faolligi ko‘zga tashlanadi. Masalan:

Onadan ko‘rgan to‘n bichar,

Otadan ko‘rgan o‘q yo‘nar;

Otasi tentakning birisi – tentak,

Onasi tentakning barisi – tentak;

Bola – loy, ona – kulol;

Odobli o‘g‘il – ko‘kdagi yulduz,

Odobli qiz – yoqadagi qunduz.

Ko‘p hollarda maqollarda ot leksemalar majoziy xarakterda qo‘llanadi. Ana shunday maqollarda chorva hayvonlari nomlari va it leksemasi ishtiroki kuzatiladi:

Ho‘kizning o‘tini yeb,

Qo‘yning qilig‘ini qilma;

Ot oyligin o‘ylar, tuya – yilligin;

Itining fe’li egasiga ma’lum.

Ayrim xalq maqollari qiyos, chog‘ishtirish munosabatini ifodalaganda, qo‘shma gap ko‘rinishida shakllangan maqolning birinchi komponenti tarkibida shaxs otlari ishtirok etadi, ikkinchi qismida esa hayvon nomlari qatnashadi:

Odam bo‘lar yigit odatidan ma’lum,

Tulpor bo‘lar qulun – muchasidan;

Ot kuchini karvonda ko‘r,

Mard kuchini maydonda.

Ko‘rinib turibdiki, qiyos uchun tanlangan shaxs va hayvon nomlarining qo‘shma gap komponentlarida o‘rinlashuvi qat’iy emas. Chunki qiyoslanayotgan mazmun yoki tushunchalar teng qiymatli bo‘lib, ularning qay biri dastlabki gapni shakllantirishi bu o‘rinda unchalik muhim emas.

Qiyos mazumnidagi maqollarda nafaqat hayvon nomlari, balki o‘simlik nomlari ham shaxs otlari uchun qiyos etaloni sifatida tanlanishi mumkin:

Terakka qarab tol o‘sar,

Onaga qarab qiz o‘sar.

Suv bilan ekin o‘sar,

Tarbiya bilan – odam

Maqollar xalqning so‘z boyligi sifatida adabiy tilning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini atroflicha o‘rganish uchun boy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдураҳмонов Ғ. «Девону луғотит турк» асарининг ўрганилиш тарихидан.// Ўзбек тили ва адабиёти. 2009, 6-сон. Б.49.
2. Жавқон Лапасов. Мумтоз адабий асарлар луғати. – Тошкент, 1994. – Б.123.
3. Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент, 1984. – 288 б